

## “FLIPPED LEARNING” TEXNOLOGIYASIDAN TA’LIM JARAYONIDA FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

**Normo’manova Gulhayo Shavkat qizi**

*O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

*Pedagogika kafedrasи assistenti*

**Xamroqulova Zuhro Komil qizi**

*O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

*Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida “Flipped Learning” (Teskari sinf) texnologiyasidan foydalanishning mohiyati va afzalliklari tahlil qilinadi. Ushbu usulda o‘quvchilar dars materiallarini oldindan mustaqil ravishda o‘rganib, sinf mashg‘ulotlarida esa amaliy topshiriqlar, muhokamalar va guruhli ishlarga e’tibor qaratadilar. Maqolada ushbu texnologiyaning o‘quvchilarning faolligini oshirish, dars jarayonining samaradorligini kuchaytirish, individual yondashuvni qo‘llash, raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash hamda ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlangan. Xulosa qismida esa ushbu innovatsion yondashuvning ta’lim sifatini oshirishga qo‘sadigan hissasi yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Flipped Learning, teskari sinf, zamonaviy ta’lim, interfaol ta’lim, mustaqil o‘rganish, texnologiyalardan foydalanish, dars samaradorligi, innovatsion ta’lim, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash.

**Annotation:** This article analyzes the essence and advantages of using the “Flipped Learning” technology in the modern educational process. In this method, students study the lesson materials independently in advance, and during class sessions they focus on practical tasks, discussions, and group work. The article emphasizes that this technology serves to increase student activity, enhance the effectiveness of the lesson process, use an individual approach, effectively use digital technologies, and develop creativity and critical thinking. The conclusion highlights the contribution of this innovative approach to improving the quality of education.

**Keywords:** Flipped Learning, flipped classroom, modern education, interactive education, independent learning, use of technologies, lesson effectiveness, innovative education, creativity, critical thinking.

Pedagogikada nutq doim birlamchi vosita bo'lib kelgan. Har qanday pedagog avvalo, mohir notiq bo'lishi talab etiladi - til birligining semantik-stilistik belgilari majmui; til birligining aloqa so'zlashuv jarayonida so'zlovchining nutq mazmuniga yoki nutq qaratilgan shaxsga nisbatan subyektiv (ijobiy yoki salbiy) munosabatining ifoda vositasi bo'la olishini ta'minlaydi.<sup>11</sup> Zamonaviy ta'lif jarayonida interfaol va innovatsion metodlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday usullardan biri "Flipped Learning" yoki "Teskari sinf" texnologiyasidir. Ushbu texnologiya an'anaviy ta'lif modelidan farqli ravishda, dars jarayonini o'quvchilarga yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. "Flipped Learning" texnologiyasi ta'lif jarayonida dars materiallarini oldindan mustaqil o'rghanish va sinfda esa amaliy mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor qaratish tamoyiliga asoslanadi. Ya'ni, o'quvchilar darsdan oldin o'qituvchi tomonidan tayyorlangan video ma'ruzalar, elektron darsliklar yoki boshqa manbalar orqali yangi mavzu bilan tanishadilar. Keyin esa sinf mashg'ulotlarida muhokamalar, loyihibar, amaliy mashqlar va guruhli ishlar orqali bilimlarini chuqurlashtiradilar.

"Teskari o'qitish" bu oddiy o'qitish jarayonini quyidagi tarzda "aylantirish" imkonini beruvchi aralash ta'lif shaklidir. Bunda bilim oluvchilar uy vazifasi o'rniga yangi o'tilishi lozim bo'lgan mavzu yuzasidan tayyorlangan materialni tomosha qilishadi. Internetdagi qisqa video ma'ruzalar o'quvchi nazariy materiallarni mustaqil ravishda o'rghanadi va dars vaqtida asosiy e'tibor amaliy vazifalarni birqalikda bajarishga qaratiladi.

Teskari o'qitish: Bu usul o'quvchilar uchun ko'proq mustaqil ish yaratadi, ammalarning dars materialini to'g'ri tushunishlarini va o'rghanishlarini ta'minlash uchun o'qituvchi va o'quvchilar orasida ko'rsatma, ko'nikma va dars vaqtida taqlil qilish juda muhimdir.

---

<sup>1</sup> Normo'minov SH.T. Matnda emotsionalik va eksperessivlikni oshiruvchi vositalar. NEW RENEINSANSE. International scientifik journal. ResearchBib IF-2023:11.01 ISSN:3030-3753, Volume1 Issue 10

Teskari o‘qitish: O‘qituvchi, dars vaqtি davomida o‘quvchilarga mashg‘ulotlar uchun yordam beradi, qo‘llanmalar taqdim etadi, yordam bera oladi va taqlil qiladi. O‘quvchilar esa mustaqil ravishda dars materiallarini o‘rganish uchun isqlaydilar.

Flipped learning – bu o‘quv jarayonining tashkiliy asoslarini tubdan qayta ko‘rib chiqish g‘oyasini amalga oshirish sifatida qabul qilingan texnologiya. Bu texnologiyaning mohiyati audiovizual didaktik vositalardan foydalanish asosida sinfdan tashqari asosiy nazariy o‘quv materiallarini mustaqil ravishda o‘zlashtirish va o‘qituvchi rahbarligida sinfda yangi bilim va ko‘nikmalarni amalda mustahkamlashdan iborat.

Flipped learning- bu to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatmalar, guruhning o‘quv maydonidan individual o‘quv maydoniga o‘tadigan va natijada guruh maydoni o‘zgaradigan pedagogik yondashuv.

Flipped learning – bu ta’lim jarayonini o‘zgacha tashkil etuvchi model bo‘lib, unda talabalar darsdan oldin o‘quv materiallarini mustaqil ravishda o‘rganadi, dars jarayonida esa bu bilimlarini chuqurlashtirish va amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ushbu modelning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- 1.Nazariy bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish – talabalar o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan video darslar, maqolalar yoki boshqa ta’lim resurslari orqali yangi mavzuni o‘zları o‘rganadilar.
- 2.Dars jarayonida interaktiv va amaliy mashg‘ulotlar – o‘qituvchi dars vaqtini nazariy tushuntirishga emas, balki muhokamalar, tajribalar va muammolarni hal qilishga yo‘naltiradi.
- 3.Talabalarning faolligini oshirish – bu yondashuv talabalarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi, ularning o‘z fikrlarini bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- 4.Individual yondashuv – har bir talaba o‘zining bilim olish tezligiga qarab mustaqil ishslash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

#### 1.Talabalarning mustaqil o‘rganish qobiliyatini oshiradi

Flipped learning modeli talabalarni mustaqil bilim olishga, axborotni tahlil qilishga va uni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatadi. Bu, ayniqsa, XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

#### 2.Ta’lim samaradorligini oshiradi

An'anaviy ta'lismida talaba dars jarayonida ma'lumotni eshitadi va uni keyinchalik mustaqil o'rganishi kerak bo'ladi. Flipped learning modelida esa talaba materialni oldindan o'rgangani uchun dars vaqtida uni yaxshiroq tushunish va amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

### 3.O'qituvchi va talabalar o'rtaсидаги hamkorlikni kuchaytiradi

Dars vaqtida ko'proq muhokama va interaktiv mashg'ulotlar o'tkazilgani sababli o'qituvchi talabalar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ta'lismida yanada samarali bo'lishiga olib keladi.

### 4.Talabalarning faolligini oshiradi

An'anaviy ta'limda talabalar ko'pincha passiv tinglovchi bo'lib qoladi. Flipped learning modeli esa ularni faol ishtirok etishga, fikr bildirishga va o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishga undaydi.

5.Raqamli texnologiyalardan foydalanish imkonini beradi. Flipped learning modeli turli xil raqamli platformalardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bu esa ta'lismida yanada zamonaviy va qiziqarli qiladi.

Flipped Learning texnologiyasini joriy etish bosqichlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

-Dars materiallarini tayyorlash – o'qituvchi tomonidan video darslar, elektron manbalar va interaktiv resurslar tayyorlanadi.

-Talabalarga oldindan topshiriqlar berish – talabalar darsga tayyorgarlik ko'rishi uchun ularga oldindan ko'rsatmalar beriladi.

-Dars jarayonini interaktiv tashkil etish – dars davomida muhokamalar, guruh ishlari va amaliy mashg'ulotlarga e'tibor qaratiladi.

-Natijalarni tahlil qilish va baholash – talabalar bilimini tekshirish uchun testlar, loyiha ishlari va muhokamalar o'tkaziladi.

Flipped Learning texnologiyasidan foydalanish o'qitish va o'rganish jarayonlarini tubdan o'zgartirishi mumkin, ammo bu yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur resurslar, o'qituvchi va o'quvchilarning tayyorgarligi hamda ta'lismuassasasining ushbu modelni qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Flipped Learning texnologiyasi zamonaviy ta’limning innovatsion yondashuvi bo‘lib, talabalarni mustaqil o‘rganishga, dars jarayonida faol ishtirok etishga va bilimlarni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatadi.

“Flipped Learning” texnologiyasining afzallikkari quyidagilarda ko’rinadi.

### 1. O‘quvchilar faolligini oshirish

An’anaviy dars jarayonida o‘qituvchi asosiy bilim manbai bo‘lsa, “Flipped Learning” texnologiyasida o‘quvchi faol ishtirokchi bo‘ladi. O‘quvchilar mustaqil o‘rganish jarayonida o‘zlarining qiziqishlariga mos ravishda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

### 2. Dars jarayonining samaradorligini oshirish

Sinfda nazariy bilimlarni o‘rganish o‘rniga amaliy mashqlar, muhokamalar va real hayotiy misollar orqali bilimlar mustahkamlanadi. O‘quvchilar bilimlarni chuqr o‘zlashtirishlari uchun ko‘proq vaqt ajratiladi.

### 3. Individual yondashuv imkoniyati

Har bir o‘quvchi o‘ziga qulay sur’atda ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘qituvchi individual yordam va maslahatlar berish orqali har bir o‘quvchining ehtiyojlarini qondirishi mumkin.

### 4. Texnologiyalardan samarali foydalanish

Video darsliklar, onlayn testlar, interaktiv platformalar va boshqa raqamli vositalardan foydalanish ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. O‘quvchilar raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

### 5. Ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

O‘quvchilar muammolarni mustaqil hal qilish, tanqidiy fikrlash va muhokama qilish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradilar. Guruhli ishlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali hamkorlik ko‘nikmalari shakllanadi.

“Flipped Learning” texnologiyasi zamonaviy ta’lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish va dars jarayonining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu model ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvni joriy etish orqali kelajak avlodni

raqobatbardosh va bilimli qilib tarbiyalashga yordam beradi. Shunday ekan, ushbu texnologiyani keng qo'llash ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.T.: 2006
2. Karimova, G. (2022). The need and factors of organizing innovative activity of future physical education teachers. Science and Innovation, 1(8), 1238-1243.
3. Avliyoqulov N.X. Musayeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent., 2008
4. Abdullaev, A., & karimova, g. (2023). The architecture of historical monuments of karmana city. Science and innovation, 2(C3), 27-28.
5. Normo'minov SH.T. Matnda emotsiyalik va eksperessivlikni oshiruvchi vositalar. NEW RENEINSANSE. International sceintifik journal. ResearchBib IF-2023:11.01 ISSN:3030-3753, Valume1 Issue 10
6. Abdullaev, A., & Karimova, G. (2022). Improving the process of school sports training. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 8, 60-63.
7. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsiontexnologiyalar (ta'lim muassasalari o'qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2010. –140 b. 8. Karimova, G. (2022). Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining innovatsion faoliyatini tashkil qilish zaruriyati va omillari. Science and innovation, 1(B8), 1238-1243
8. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(05), 6694-6701.